

O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA OILAVIY QADRIYATLAR TASVIRI

Umirzoqova Zarnigor

Termiz Iqtisodiyot va Servis

Universiteti Filologiya va Tillarni o'qitish (Ingliz tili) yo'nalishi talabasi

Raxmonqulova Yoqutxon

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13919761>

Annotatsiya: Maqolada xalq maqollariga adabiy nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va til ravonligini ta'minlash uchun undan keng foydalanishdagi xususiyatlar keng tahlil etiladi. Ulardagi barcha xususiyatlar atroflicha o'rganiladi

Tayanch so'zlar: Maqollar, Oilaviy qadriyatlar, Folklor, xalq ta'lim vazirligi, konsepsiya, atrof-muhit, hayot qomusi, iqtisodiy tafakkur, zararli sifatlar, hay'at majlisi, kengash, ijod sarchashmasi.

Kirish

Xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrasiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi, o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin. Ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni to'g'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy, maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiylidir.

Tahlil va metod

Insoniyat tomonidan yaratilgan maqollarning tematikasi keng va rang-barangdir. Ayniqsa, maqollar she'riyati va didaktizmi qadimdan mashhur bo'lib, tematik jihatdan shu qadar boy, shu qadar keng, shu qadar rang-barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yorlardan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z in'ikosini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika sohasida, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchasmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertaklar va dostonlarda o'zining yuksak orzu umidlari, zavq shavqi-yu kurashlarini ifodalagan. Xalq og'zaki ijodi o'zi mazmunan rang-barangligi, yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligi, juda kuchli, tarbiyaviy g'oyalar va yaxshiliklarga, to'g'rilikka, mehnatsevarlikka xullas, xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'liqligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir.

Kattalar hamisha o'z farzandlarini o'ylab yashaganlar - mehnat va ijod bilan shug'ullanganlar. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to'g'risida qayg'urish majburiyatining

tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo'shiqlarning to'qilishiga sabab bo'lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish etish mas'uliyati behad katta bo'lgan.

Bolalar folklyori ko'pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi. Misol uchun bola tarbiyasiga alla juda katta ta'sir qiladi. Ba'zi hollarda bolalar o'z o'yinchoqlari asosida o'zlari ham alla, qo'shiq to'qiydilar. Bularning hammasi bir bo'lib faqat yaxshi tarbiyani va ezgulikni, to'g'rilikni targ'ib qiladi. Bolalar xalq og'zaki ijodining pedagogika bilan bog'lanishi alladan boshlanadi. Xalq og'zaki ijodining eng rivojlangan janrlardan biri alladir. Alla bolalar beshikdaligida, hali tili chiqmasidanoq aytiladi. Boshqacha talqin qiladigan bo'lsak, beshik qo'shig'i ya'ni bolaga ona suti bilan kiradi.

Onalar ana shu murakkab mas'uliyatni zimmalariga olganlar: o'tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o'zlari goh tushunib, goh tushunmay, bolalarni tarbiyalab o'stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini, dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtirganlar. Bu yo'lda qo'shiq ularga madadkor bo'lgan: bolalarni alla bilan uxlatganlar, yig'lasa - kuylab ovutganlar, erkalatganlar. Shu zaylda allalar, aytim, olqish, ovutmachochlar, erkalamalar, qiziqmashochlar va qaytarmachochlar yuzaga kelgan.

Allada yaxshi tarbiya ko'rgan bola jamiyat o'rtasida, to'y hashamlarda, maktabda, o'qishda, ko'cha-ko'ya yoshi kattalar bilan muloqotda ota-onasining obroyi, uning shuhrati sifatida ta'riflanadi. Shuningdek bolani to'g'ri tarbiyalanishida ota-onaning o'rni katta bo'ladi. Bola tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir omil bu maqollardir. Xalq og'zaki ijodida maqollarning o'ziga xos o'rni bor. U xalqning, bir necha avlodlarning aqlu-farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Bola ta'lim tarbiyasida maqollarni o'rni muhimdir. Maqollar ona vatanni sevishga uning har bir qarich yeri uchun kurashishga, mard, sadoqatli, qo'rqmas bo'lishga o'rgatadi. „Yurt qo'risang o'zarsan, qo'rimasang to'zarsan“, kasb-hunar egasi bo'lishga „yigit kishiga yetmish hunar oz“, ahil bo'lib mehnat qilishga „ko'pchilik qo'lida unum ko'p“, to'g'ri so'z va halol kishilar bo'lib kamol topishiga „Boshinga qilich kelsa ham rost so'zla“, yaxshi odobli va oliyjanob xulqli bo'lishga „Odob bozorda sotilmas“, „yalqovlik oxiri xo'rlik“, kabi maqollar bolalarni tarbiyali farosatli bo'lishga chaqiradi.

Ona yurtning omon bo'lsa,

Rangu ro'ying somon bo'lmas. Mehnatsiz rohat yo'q.

Egri ozadi to'g'ri o'zadi.

Ta'lim tarbiya jarayonida maqol va matallarning ham o'rni muhimdir. Maqollarni hayot qomusi, xalq og'zaki ensiklopediyasi o'ziga xos bir badiiy-tarixiy solnoma deyish mumkin, ular insonlar aqlini o'tkirlashtiradi, nutqini ravshan va ta'sirchan qiladi, hayotda to'g'ri yo'lni tanlay bilishga, hayotiy jumboqlar va muammolarni tog'ri yechishga o'rgatadi. Shuningdek, maqollar o'z ijodkori bo'lmish xalqning dunyoqarashini, madaniy-maishiy hayotini, tafakkur xazinasini jamlovchi eng kichik og'zaki ijod namunalari sifatida juda qadimiydir. Inson tomonidan yaratilgan maqollarning ma'nosi keng va rang-barangdir. Ayniqsa maqollar she'riyati va didaktizmi bilan qadimdan mashhur bo'lib, ma'no jihatidan shu qadar boy va shu qadar keng, shu qadar rang barangki, ularda ijtimoiy hayotning eng murakkab muammolaridan tortib oilaviy hayotning eng kichik urf-odatlarigacha, oliy axloqiy me'yordan tortib kishilar xarakteridagi mayda-chuyda nuqsonlargacha, falsafiy dunyoqarashdan tortib eng kichik jonivorlarning xususiyatigacha o'z ifodasini topgan. Qisqasi tabiat va jamiyat hayotining biron-bir sohasi yo'qki, u maqollarda o'z aksini topmagan bo'lsin. Maqollar o'z navbatida pedagogika

sohasida, ta'lim va tarbiya jarayonida bizga eng kerakli, vaqt sinovidan o'tgan ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. Albatta, biz ulardan o'z o'rnida unumli va o'rinli foydalansak maqsadga muvofiq bo'lar edi. Biz o'zaro muloqot ya'ni suhbatlashuv jarayonida o'z fikrimizni dalillash uchun xalq maqollaridan ko'p foydalanamiz. Bu narsa bizga nutqimizni go'zal, jozibali va ishonchli bo'lishida yordam beradi. Misol uchun farzand tarbiyasi haqida shunday bir fikr bor: "Sen farzandingni tarbiyalama, eng avvalo, o'zingni tarbiya qil". Farzandinga biror bir xato ishni qilmaslikni qancha uqtirsang ham o'sha ishni o'zing qilsang, farzanding sen kabi shu ishni aynan takrorlaydi. Farzand - oynadir, qush uyasida ko'rganini qiladi". Bola go'yoki yozilmagan oppoq qog'ozga o'xshaydi, oppoq qog'ozga qanday yozsang xuddi shunday yoziladi. Shunday ekan bola tarbiyasiga e'tiborsizlik va ma'suliyatsizlik bilan qarash mumkin emas. Bolaga uni o'z qadriyatlar, urf-odatlar, milliyatini o'rgatish zarur eng avvalo bolani kitobga qiziqishini orttirish kerak. Bilamizki hech bir kitob, maqollar, ertaklar bolani yomonlikka, egrilikka yo'llamaydi. Biz qanchalar farzandimizga o'quvchilarimizga mehr berib, parvarishlab uni dangasalikdan asrab mehnatsevsr qilsak bola shuncha chiroyli gullab, o'sib shirali mevalar beradi. O'zbek millatining ma'naviy qiyofasini, o'zligini ko'rsatib beradigan xalq og'zaki ijodining namunasi maqollar ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Maqollarni o'rganish va o'rgatish yoshlarimiz ma'naviyatida o'z millatiga nisbatan hurmatini, qalbida faxr tushunchasini olib kiradi. Bola tarbiyasi uchun ota-ona qanchalar muhim o'rin tutsa uning o'qituvchisi hamda tarbiyachising ham o'rni huddi shunday muhim bo'ladi.

Xalq ta'limi vazirligining 2004-yil 26-fevraldagi 26-sonli hay'at majlisi qarori bilan oila, mahalla, maktab konsepsiyasi qabul qilindi. Bu konsepsiyada belgilab berilgan vazifalarni hal qilish uchun: vazirlikning tashabbusi bilan respublikamizdagi har bir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda

jamoatchilik maslahat kengashi tuzilib, joylarda tarbiyasi og'ir, xulqi buzuqlikka moyil hamda daydib yurgan bolalar bilan ishlash, ularning ta'lim-tarbiyasiga va „Oila, mahalla, maktab“ konsepsiyasini amalda joriy etishga e'tibor qaratildi. Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita bu o'qituvchidir. O'quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy faoliyatini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan,

“Bolangiz qanday o'qishini bilasizmi?”, Bolangizning odobi haqida suhbatlashaylik”, „Mustaqil hayot bo'sag'asida“ kabi mavzularda olib borilgan suhbatlar ota-onalarning o'z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg'urishlariga sabab bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan darslar, ularning mazmuni va eng asosiysi, shu har bir xatti-harakati ham bola dunyoqarashi shakllanishi ta'sir etuvchi omildir. Bola insoniy xislatlar: ezigulik, odamiylik, yaxshilikni ham, yomonlikni ham, eng avvalo, oiladagi kattalarning, ustozlarning xatti- harakatidan o'rganadi. Ota-onalar bilan bir qatorda tarbiyachi- o'qituvchilar o'z xulq-atvori bilan bolalar hurmatiga sazovor bo'lishlari, ularning hayot yo'lida o'rnak ko'rsatishlari kerak. Shunday muhitda tarbiyalangan bolagina ota-onani, qolaversa o'z ustozlarini hurmat qiladigan, mahalla-ko'yda o'zidan kichikni izzatlash, kattalarni hurmatlashni o'z o'rniga qo'yadigan, xulqli bo'lib voyaga yetishadi. Har bir tarbiyachi tarbiya san'atkori bo'lmog'i lozim. Bu bolalarni sevish san'atidir. Tarbiyasi og'ir, qarovsiz qolgan bolalarning ota- onalari bilan ishlash, ularni jamoatchilik kengashlariga olib chiqish, foydali mehnatga jalb qilish, to'garaklarga qatnashtirish,

hunarmandchilikka o'rgatishni ta'minlash, har bir tarbiyasi og'ir bolaga jamoatchilik faollarini birlashtirish, vaqti-vaqti bilan ularning hisobotlarini tinglash lozim. Shu bilan birgalikda sinfda yoki sinfdan tashqarida har bitta o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda jonli muloqot qilib, ijobiy muhitni yaratishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining kommunikativ qobiliyatiga kiradi.

Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'quvchilar bilano'zaro yaqin munosabatidan asosiy maqsad:

- ✓ salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- ✓ o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish;
- ✓ o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish;
- ✓ o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish;
- ✓ dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish bo'lib hisoblanadi;

O'qituvchi bolaga bergan tarbiya bolani kelajakda qanday yetishishini ta'minlaydi, shu sababli tarbiyani bolaga turli jarayonlar vositasida singdiriladi. Vositalarning har bir vazifalari katta ahamiyatga ega.

Tarbiya jarayonlarining vazifalari:

1. O'quvchilarda ijtimoiy dunyoqarashni shakllantirish.
2. O'quvchilarda jamiyatga, vataniga muhabbatli va sadoqatli qilish. Atrofdagi kishilarga axloqiy munosabatda tarbiyalash.
3. O'quvchilarda huquqiy madaniyatni tarbiyalash.
4. Atrof muhitga nisbatan to'g'ri munosabatda tarbiyalash.
5. Mehnatga to'g'ri munosabatini, kasb tanlashga jiddiy yondashuvda tarbiyalash.
6. Iqtisodiy tafakkurni, madaniyatni tarkib toptirish.
7. Tabiat va san'atdagi go'zallikni to'g'ri idkor etishga o'rganish estetik ong, idrok, mulohazasini shakllantirish.
8. Sog'lom, jismoniy, barkamol shaxsni tarbiyalash.

Xulosa

Tarbiya - ijtimoiy hayot hodisasi sifatida shaxs rivojlanishini bilan bog'liq. Shaxsning rivojlanishi tarbiyaning sifatiga bog'liq. Tarbiya jarayoni uzoq va murakkab davom etadi. Tarbiya ijtimoiy muhitning obyektiv va subyektiv omillariga tayanadi. Jamiyatning siyosiy tizimi va mafkuraga bog'liqligi obyektiv bo'lsa, tarbiya muassasalari o'qituvchilar, oila, tarbiyachilar, jamiyat tashkilotlari subyektiv omillar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda bolani qayta tarbiyalash ham bor. Ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar, oilaviy sharoitning o'zgarishi, o'qituvchi shaxsidagi ayrim kamchiliklar asosida vujudga keladigan salbiy odatlarni, bola fe'l-atvoridagi zararli sifatlarni yo'qotish qayta tarbiyalash deyiladi. Tarbiyalash - qayta tarbiyalashdan osonroqdir. Shuning uchun xatoni oldini olish kerak. Aks holda bola xulqini qayta tarbiyalashga to'g'ri keladi.

References:

1. "Milliy Tarbiya " Muallif: Muhammadjon Quronov, Hammuallif: I. Daminov , O.Bozorov, Sh.Akramova

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasiga oid qarori, farmon va farmoyishlari. 2004-yil 26-fevral
3. Kobiliva, N., Shayxislomov, N., & Raimova, M. (2021) Chet tili va o'zbek parameologik birliklarining siyosiy - semantik tahlili. Scientific progress 1(4).
4. T.Mirzayev O'zbek xalq maqollari - Toshkent, 2016. 7-b. 3. O'zbek xalq maqollari - 1988. 2 - jild.
5. "O'zbek xalq maqollari" T.Mirzayev,A. Musaqulov. Toshkent(2005)
6. J.Raymond "Naprijonnost v poslovitsah" Zapadny folklor. 1956
7. <https://en.wikipedia.org/wiki/Proverb>
8. Makhmatkulov, K., Gaziyeva, S., & Ashirova, M. (2020)
9. Usmonova, G. (2020). Borrowings of English vocabulary and their distinctive features. *Экономика и социум*, 72(5), 98-100.
10. Abduramanova, D. V. (2020). INNOVATIVE TECHNIQUES OF TEACHING VOCABULARY IN THE SECOND LANGUAGE CLASSROOM. *Science and Education*, 1(Special Issue 2).
11. Khakimova, K. B. (2020). THE SUBJECT AND PLACE OF TOPONYMICS IN THE SYSTEM OF SCIENCES. *Science and Education*, 1(Special Issue 2)

